

SHAYBONIYLAR SULOLASI DAVRIDA OLIB BORILGAN XALQARO MUNOSABATLAR

Rashidov Oybek Ortiqovich

Buxoro Davlat Universiteti, I bosqich Tarix yoʻnalishi magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18402838>

Annotatsiya. Ushbu maqolada shayboniylar sulolasi davrida xalqaro munosabatlardagi dolzarb masalalar koʻrib chiqilgan. Bu davrdagi savdo va diplomatik munosabatlar, elchilik aloqalari, boshqa davlatlar bilan olib borilgan munosabatlar aks ettirilgan. Shuningdek, oʻsha davr tarixchilari tomonidan yozilgan asarlar shayboniylar sulolsini oʻrganishda muhim manbadir. Bu davr xalqaro munosabatlarning xalqaro maydonda harbiy kuchga tayanganligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit soʻzlar: siyosiy vaziyat, iqtisodiy, Samarqand, Safaviylar, Boburiylar, Usmoniylar, savdo-diplomatik aloqalar, harbiy munosabatlar.

INTERNATIONAL RELATIONS DURING THE SHAYBANID DYNASTY

Abstract. This article examines current issues in international relations during the Shaybanid dynasty. It reflects trade and diplomatic relations, ambassadorial ties, and interactions with other states of that period. Furthermore, the works of contemporary historians serve as essential sources for studying the Shaybanid dynasty. A key characteristic of international relations during this era was the significant reliance on military force in the international arena.

Keywords: political situation, economic, Samarkand, Safavids, Ottomans, trade-diplomatic relations, military relations.

Shayboniylar sulolasi (1501-1601)— Markaziy Osiyo tarixida muhim oʻrin tutgan oʻzbek sulolalaridan biridir. Ushbu sulola 16- asr boshlarida Markaziy Osiyo mintaqasida oʻzining hukmronligini oʻrnatdi. Shayboniylar Chingizxon naslidan boʻlib, Joʻjining oʻgʻli Shaybon avlodiga mansub. Shu sababli ular “Shayboniylar” deb atalgan.

Sulolaning eng koʻzga koʻringan hukmdorlari Muhammad Shayboniyxon (1501-1510), Ubaydullaxon (1533-1540) va Abdullaxon II (1583-1598). Ushbu davrdagi xalqaro munosabatlar tarixda muhim ahamiyat kasb etadi. XVI asr boshlarida Markaziy Osiyoda yuz bergan muhim siyosiy oʻzgarishlar Shayboniylar sulolasi nomi bilan bogʻliq.

Muhammad Shayboniyxon tomonidan barpo etilgan bu davlat qisqa vaqt ichida mintaqadagi eng qudratli siyosiy kuchlardan biriga aylangan. Shayboniylar sulolasi vakillari Usmonli turklar va Boburiylar imperiyasi bilan yaxshi qoʻshnichilik aloqalarini olib borgan.

Ushbu davr tarixchilari tomonidan Shayboniylar sulolasining tashqi siyosatidan maʼlumot beruvchi asarlar ham mavjud. Masalan, Muhammad Solihning "Shayboniynoma" asarida Shayboniylar davlati (XVI asr boshlari) xalqaro munosabatlari, Shayboniyxonning mintaqani birlashtirish va Temuriylar hamda qoʻshni hukmdorlar ustidan gʻalaba qozonish siyosati orqali tasvirlanadi. Asarda Buxoro, Samarqand va Xorazmning zabt etilishi, Bobur va Husayn Boyqaro bilan toʻqnashuvlar, shuningdek, Eron (Safaviylar) bilan ziddiyatlar Shayboniyxonning shaxsiy jasorati va harbiy mahorati orqali yoritib berilgan. Eron (Safaviylar) bilan munosabat: Eron Safaviylari bilan ziddiyatning asosiy sababi bu diniy mojarbo boʻlsa, (shia sunniy mojarosi) boshqa tarafdin ayrim viloyatlarning va hududlarning qoʻlga kiritilishi edi. Ubaydulloxon (1533-1540) va Abdullaxon II (1583-1598) davrida Eron safaviylari ustidan janglarda gʻalaba qozonilgan.

Ubaydulloxon Movarounnahrni Eron safaviylaridan xalos etgan va mamlakat chegaralarini mustahkamlagan. “Abdullanoma” (Hofiz Tanish Buxoriy) asarida Shayboniylar davlatining diplomatik aloqalari, elchilik munosabatlari va ichki barqarorlikni ta’minlashga qaratilgan siyosati yoritiladi. Xalqaro munosabatlar faqat urush emas, balki siyosiy muvozanatni saqlash vositasi sifatida ham ko’rsatiladi. Ushbu asar sulolaning eng yirik vakili Abdullaxon II ga bag’ishlanadi.

Aynan Abdullaxon II davrida xalqaro munosabatlarda Hindiston, Rossiya, Usmonli turklar bilan nafaqat harbiy- strategik, balki savdo- sotiq va tijorat borasida ham kelishuvlar olib borgan. Sulolaning yarmi aynan Abdullaxon II nomi bog’liq. Abdullaxon II tashqi siyosatida Boburiylar bilan keng ko’lamda diplomatik aloqalar olib borgan. Bu davrda Akbarshoh II (1556-1605) va Abdullaxon II (1583-1598) o’rtasida elchilik aloqalari tez-tez bo’lgan. Bundan ko’zlangan asosiy maqsad mamlakatlar o’rtasidagi yaxshi qo’shniçilik va o’zaro yordam bo’lgan. Chunki, bu davrda mintaqaning ikki eng yirik davlatlari o’rtasidagi munosabatdan ikkala davlat ham birdek manfaatdor edi. Dastlab, Abdullaxon Akbarshoh huzuriga o’z elchisini yuboradi. Elchi Akbarshohga do’slik va birodarlikni kuchaytirish to’g’risidagi maktubini topshirgan. Bu ikki mamlakat o’rtasidagi yaqin munosabatning dastlabki ko’rinishi edi. Bunga javoban Akbarshoh ham o’zining maktubini Abdullaxonga yuborgan.

Keyinroq, Abdullaxon II Hindistonga yana o’z elchisini yuboradi. Bundan ko’zlangan maqsad, Eron davlatini bo’lib olish taklifi edi. Chunki, Abdullaxon IIning bobokaloni Muhammad Shayboniyxon aynan Eron safaviylari bilan bo’lgan jangda halok bo’lgan edi.(1510-yil Marv jangi). Lekin, Akbarshoh bu taklifga rozi bo’lmaydi.

Sababi, Akbarshoh Eron davlatining musulmon davlat ekanligini eslatib, bu davlatga yurish qilmaydi. Bu ikki davlat o’rtasidagi munosabatlar Badaxshon hududi uchun sal buziladi.

Abdullaxon IIning maqsadi qulay strategik o’rinda joylashgan Badaxshonnni o’z tarkibiga qo’shib olish edi. I. Nizomiddinovning ta’kidlashicha, Abdullaxon II Akbarshoh huzuriga Badaxshonning bosib olinish sabablarini tushuntirish uchun o’zining elchisini Akbarshoh huzuriga yuboradi. Demak, 16- asrning ikkinchi yarmida Shayboniylar va Boburiylar o’rtasidagi munosabatlar iliq keçgan. Ikkala davlat ham o’zaro siyosiy munosabatlarning yaxshilanishidan manfaatdor edi.

Boburiylar imperiyasi bu davrda o’z qudratining cho’qqisiga erishgan bir davrda Abdullaxon II asosiy e’tiborni bu davlat bilan yaxshi munosabatlarga qaratgan. “Tarixi Rashidiy”da (Mirzo Muhammad Haydar Dug’lat)Mazkur asarda Shayboniylar Markaziy Osiyodagi muhim siyosiy kuch sifatida tilga olinadi. Chunki, bu paytda Markaziy Osiyoda eng qudratli davlat aynan shayboniylar davlati edi. Muallif Shayboniylar siyosatini ko’chmanchi an’analar va markazlashgan davlat manfaatlari uyg’unligi sifatida baholaydi. Abulg’oziyning “Shajarayi turk” va “Shajarayi tarokima” asarlarida Shayboniylar Turk qabilalarining siyosiy yetakchisi, Dashti Qipchoq va Movarounnahr o’rtasida bog’lovchi kuch sifatida tasvirlanadi.

Bu asarlarda Shayboniylar xalqaro siyosati qabilalararo ittifoqlar, qarindoshlik aloqalari va harbiy sadoqat orqali amalga oshirilgani ta’kidlanadi. Mazkur asar yuqoridagi asarlardan muallif o’z ko’zi bilan emas balki manbalardan foydalanib yozilgan. Usmonli turklar(1299-1922) va Shayboniylar(1501-1601) o’rtasidagi munosabatlar iliq keçgan. Bunga bir tarafdin ikkala davlatning ham diniy tomondan yaqinligi bo’lsa , ikkinchi tarafdin umumiy dushmanga qarshi ittifoq bo’lgan. Chunki Eron safaviylari Shayboniylardan tashqari Usmonli turklar bilan ham dushmanlik kayfiyatida bo’lgan.

Muhammad Shayboniyxon va Abdullaxon II davrida Usmonli turklar bilan munosabat ancha rivojlangan. Muhammad Shayboniyxon davrida Usmonli turklar bilan munosabat asosan harbiy jihatga qaratilgan bo'lsa, Abdullaxon II bilan munosabatlar asosan harbiy va savdo-sotiqqa qaratilgan. Muhammad Shayboniyxon turk sultoni Boyazid II bilan Eron davlatini bosib olish uchun shartnoma tuzilgan. Usmonli turklar va Shayboniylar o'rtasidagi munosabatlarda asosan Eron davlatini bosib olish asosiy maqsad edi. Bundan tashqari, ayrim strategik hududlar uchun ham nizolar Eron davlati bilan bo'lgan. Shayboniylar sulolasining xalqaro munosabatlari deyilganda, asosan Abdullaxon II tilga olinadi. Chunki, aynan Abdullaxon II (1583-1598) Moskva knyazi Ivan Grozniy (1533-1584) bilan savdo va diplomatik aloqalar olib borgan.

Rossiya bilan olib borilgan xalqaro munosabatlarning asl maqsadi xavfsiz savdo yo'li bo'lgan. Shuning uchun, Abdullaxon II o'z oldiga Rossiya bilan savdo aloqalarini yaxshilashga e'tibor qaratgan. Uning asosiy maqsadi Volga bo'ylab fuqarolarning erkin savdo-sotiq qilishi bo'lgan.

Xulosa

Shayboniylar sulolasi davrida (1501-1601) uzoq va yaqin mamlakatlar bilan elchilik aloqalari rivojlangan. Abdullaxon II davrigacha xalqaro munosabatlar ko'pincha harbiy strategik jihatga qaratilgan bo'lsa, Abdullaxon II hukmronligidan so'ng asosan savdo-sotiq, tijorat, fuqarolarning xavfsizligiga qaratilgan. Hindiston, Rossiya, Usmonli turklar bilan aloqalar harbiy strategik va xavfsiz tijoratga qaratilgan. Markaziy Osiyoda 1 asr hukmronlik qilgan Shayboniylar sulolasi davri xalqaro munosabatlarda faol tashqi siyosat olib borgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Azamat ZiyO`zbek davlatchiligi tarixi.- Toshkent 1998.
2. Muhammad Solih. Shayboniynoma.- Toshkent 1989.
3. Hofiz Tanish Buxoriy. Abdullanoma.-Toshkent 1999.
4. Abulg`oziy Bahodirxon. Shajarayi Turk-Toshkent 1992.
5. Akbar Zamonov. Buxoro xonligi tarixi.- Toshkent 2021.